



YOZUVCHI VA JAMIYAT: ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA
IJTIMOIY TANQID

Termiz davlat universiteti talabasi
Quliyeva Gulnoza

Annotatsiya: Mazkur maqola, asosan, jamiyatda mavjud adolatsizlik, loqaydlik, munofiqlik va poraxoʻrlik kabi illatlarni oʻz asarlarida toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki yumor va satira orqali ochib berishga, insonlar ongini uygʻotishga va jamiyatda yuz berayotgan shu kabi masalalarga yozuvchi qanday munosabatda boʻlishi lozimligi, yozuvchining asarlarida ijtimoiy tanqid qay darajada shakllanganligi kabilar Abdulla Qahhor va uning asarlari timsolida tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Tanqid, yumor, poraxoʻrlik, maʼnaviy savodsizlik, mafkuraviy illatlar, kommunistik manmanlik, adabiy- badiiy tanqid, obraz, riyokorlik, axloqiy qadriyatlar.

Adabiyot doimo jamiyatning inʼikosi, yaʼni tajallisi boʻlib kelgan. Adabiy asarlarda koʻpincha jamiyatda mavjud boʻlgan ijtimoiy muammolar, inson hayotida uchraydigan salbiy illatlar, axloqiy va maʼnaviy qarashlar oʻz ifodasini topadi. Albatta, har bir shoir va yozuvchi borki, bu kabi muammolarni chetlab oʻtolmaydi, unga befarq boʻlolmaydi. Yozuvchi bunday masalalarni tanqid qiluvchi, oʻz fikr va qarashlarini bildiruvchi va ularni oʻzgartirishga harakat qiluvchi shaxs hisoblanadi.

Tanqid — oʻzi nima? Adabiyotda tanqidning baʼzi turlari mavjud boʻlib, ulardan biri adabiy-badiiy tanqid.

Adabiy-badiiy tanqid — sanʼat asarlari baholanadigan soha! Aniq fan namoyondalari ilmiy laboratoriyani qanchalik zarur deb bilsalar, sanʼat uchun adabiy tanqid ham shunchalik muhimdir. Adabiy-badiiy tanqid haqida gap borsa, tabiiyki, uning bosh vazifasi — baholovchilik haqida soʻzlanadi¹. Adabiy tanqidida yozuvchilar ijodi, asarlari, ularning badiiy ahamiyati tahlil va talqin qilinadi. Bundan farqli ravishda ijtimoiy tanqidida atrof-muhitdagi salbiy holatlar, insonlar orasida ortib borayotgan turli xil illatlar, kamchiliklar yozuvchi va shoirlar tomonidan bayon etiladi.

Oʻzbek tanqidchiligiga sezilarli darajada hissa qoʻshgan adiblardan biri — A. Qahhordir. Yozuvchining koʻplab asarlari tanqidiy yoʻnalishga bagʻishlangan boʻlib,

¹ Rasulov, A. (1985). Tanqidchilik ufqlari. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. — B. 43–44.





unda oddiy va sodda insonlarning adolatsizlik, munofiqlik, ularga nisbatan qilingan nohaqliklar qurboni bo'lishgani tasvirlangan. A.Qahhorning „O'g'ri" hikoyasini oladigan bo'lsak, bu asarda ta'kidlab o'tilgan ko'pgina nuqsonlarni uchratishimiz mumkin.

Asardagi bosh qahramon Qobil boboning amaldorlarning hiylalariga aldanishi, soddaligi tufayli ularning sigirini topib berish to'g'risidagi „naqd gaplariga " ishonishi yozuvchi tomonidan aks ettirilgan. Amaldorlarning oddiy xalq muammolari bilan qiziqmasligi, aksincha, ularning bu og'ir ahvolidan foydalanishi, poraxo'rlikning avj olgani qoralangan. Asardagi „odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan " jumlasiga e'tibor qaratsak, nega odamlar o'rganib qolgan? Chunki aynan o'sha davr muhitida bunday salbiy holatlar tez-tez kuzatilgan. Ayollar orasida keng tarqalayotgan folbinlarga, „irim-sirimlarga " ishonuvchanlik holati ham Qobil boboning ayoli tasvirida, ya'ni azayimxonga qatnagani, bundan tashqari amaldorlarning oddiy xalq vakillariga bepisandligi, sovuqqonlik bilan muomala qilish asarda ochib berilgan.

A.Qahhor turmushimizda uchrab turadigan tipik voqealarni, kishilar xarakterida davom etib kelayotgan qoloqlikning, feodallarcha munosabatlarning yangi xillarini, jirkanch xususiyat va yaramas xatti-harakatlarni tanlay oldi va umumlashtirdi. Til orqali ularning har qaysisini hayot tajribasi, xarakteri, ichki mazmuni, ongi, bilimi, dunyoqarashi, madaniyati, psixologiyasi, boshidan kechirganlari, munosabatlari, xatti-harakatlari yoritildi². Xuddi shu jihatni „ Bemor " hikoyasida ham kuzatishimiz mumkin. Asarda inson qadr-qimmatining past o'rinda turishi, ularga nisbatan beparvolik, loqaydlik, sustkashlik asosiy o'rinda tasvirlangan. Moddiy tomondan nochorlik bir insonning vafot etishi holatigacha olib keladi. Ammo, nima uchun moddiy nochorlik? Asarda keltirilgan qahramon ishchi sifatida faoliyat yuritsada, „baqqoldan qarz ko'tarishga " majbur bo'ladi. Ishchi xo'jayinining oldiga arz qilish uchun boradi, agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, asarda yordam so'rash uchun emas, arz qilish uchun deb ta'kidlangan. Chunki ijtimoiy davrning o'sha muhitida amaldorlar tomonidan o'z ishchilariga past nazar bilan qarash, ularning mehnat faoliyatining qadrsizligi, juda kam miqdorda haq to'lanishi mavjud muammolarning bosh sababi sifatida bilvosita aks ettirilgan. Bemorning ahvoli og'ir bo'lishiga qaramasdan, unga nisbatan qilingan munosabatlar: qon olish, xipchin bilan savalash, tovuq so'yib qonlash, hech biri natija

2 Abdusamatov, X. (1957). Abdulla Qahhor. — Toshkent: „ Qizil O'zbekiston " , „ Правда Востока " , „ Узбекистони Сурх " birlashgan nashriyoti.

— B. 28-34.





bermagach, yosh qizchaniq duolariga umid bog'lash — bularning barchasi o'sha tuzum insonlarining qoloqligidan, ma'naviy savodsizligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari A.Qahhorning ko'pgina asarlarida ijtimoiy tanqidni uchratishimiz mumkin. Shu jumladan, „Tobutdan tovush“ komediyasi. Asar komediya janrida yozilgan bo'lsada, unda ko'pgina mafkuraviy illatlar ochiqdan ochiq aks ettirilgan. Asarda bosh g'oya jamiyat orasida keng tarqalgan poraxo'rlik illatini qoralash, uning salbiy oqibatlarini ochib berishdan iborat. Yozuvchi bu to'g'risida, qo'llagan epigrafi orqali ham asarida ifodalamoqchi bo'lgan g'oyalarini yoritib beradi:

„ Meningcha, hozir...uchta asosiy dushman bor: birinchi dushman — kommunistik manmanlik, ikkinchi dushman savodsizlik, uchinchi dushman poraxo'rlikdir "3

Asarda bosh qahramon obrazida yozuvchi jamiyatdagi ko'pgina illatlarni ochib beradi. Qahramon insonlarning muhtojligidan foydalanish orqali o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylagan salbiy tip vakili timsolida bayon etilgan. Yana bir qahramonlardan — o'zini dindor sifatida ko'rsatadigan qori, ya'ni masjid imomi obrazidir. Bu obraz orqali dindorlik niqobi ortidagi yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, o'zini iymon - e'tiqodli qilib ko'rsatish, ammo amalda diniy va axloqiy qadriyatlarga zid ishlarni amalga oshirgan soxta taqvodor shaxslar yoritib berilgan.

Bunday obrazlar salbiy xarakterlar sifatida tasvirlanadi, amalda dinda qoralangan sifatlarga ega bo'lsada, o'zining tashqi dunyosi, so'zlarida hadislardan iqtiboslar keltirishi, din yuzasidan insonlarga maslahatlar berish kabi riyokorlikka ega hisoblanadi. Bu sifatlarning barchasi asarda keltirilgan qori obrazida ham kuzatiladi. Bunday shaxslar jamiyatda hurmatga loyiq bo'lsada, asar davomida ularning ichki olami, ikkiyuzlamachiligi fosh etiladi. Yozuvchi asarda ifodalamoqchi bo'lgan g'oyasini, insonlarni mafkuraviy illatlardan ogoh etib, ularni to'g'rilikka boshlash yo'lidagi fikrlarini Obidjon obrazi orqali, ya'ni shu qahramon tilidan bayon etgan. Obidjon obrazi asarda ijobiy xarakter egasi hisoblanib, u ko'pgina, salbiy jihatlarni fosh etishga ko'mak beradi.

Eski jamiyat qoldirgan illatlarga adabiyot va san'at vositasi bilan kurashning yo'llaridan biri majruhning majruhliligini, illatning illatligini ko'rsatishdan iborat edi. A.Qahhor o'tmish fojialarini tasvirlashga bag'ishlangan asarlarida ham qisman shu vazifani bajargan edi4.

3 A.Qahhor. (1962). Tobutdan tovush: www.ziyouz.com kutubxonasi.

4 Qo'shjonov, M. (1973). Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor. — Toshkent: O'zbekiston SSR „Fan“ nashriyoti. — B. 23.



Tanqid o‘zi qanchalik muhim? Yozuvchi uchun tanqidiy asarlar yaratishning ahamiyati qanday, deb o‘ylaymiz. Tanqid ijtimoiy adolatni targ‘ib etish vositasidir. Yozuvchi uchun tanqidiy asarlar yaratish jamiyat va insonlar bilan muloqotda bo‘lish, xalqning muammolarini badiiy til vositasida o‘z asarlari orqali yetkazib berishdir. Ayniqsa, A.Qahhor ijodini bunga misol tarzda ko‘rib chiqdik. A.Qahhor o‘z asarlari bilan jamiyatni o‘zgartirishga harakat qilgan. Shu kabi yozuvchilarning tanqidchilikka asoslangan asarlari tarbiyaviy va ijtimoiy - falsafiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi va bunday asarlarning kelgusida ham yaratilishi tanqidchilik rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Rasulov, A. (1985). Tanqidchilik ufqlari. —Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. — B. 43–44.
2. Abdusamatov, X. (1957). Abdulla Qahhor. — Toshkent: „ Qizil O‘zbekiston “ , „ Правда Востока “ , „ Узбекистони Сурх “ birlashgan nashriyoti. — B. 28-34.
3. A.Qahhor. (1962). Tobutdan tovush: www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Qo‘shjonov, M. (1973). Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor. — Toshkent: O‘zbekiston SSR „Fan“ nashriyoti. — B. 23.

Research Science and
Innovation House

